

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN STOMATOLOGIK KASALLIKLARI VA FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Stomatologik kasalliklari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Stomatologik kasalliklari

- 1.Og'iz bo'shlig'i organlari anatomiyasi,gistologiyasi va fiziologiyasi;
- 2.Aholiga stomatologik yordam ko'rsatish;
- 3.Aseptika va antiseptika;
- 4.Stomatologik bemorni tekshirish usullari;
- 5.Tish qattiq to'qimalarining nuqsonlari;
- 6.Stomatologik kasalliklarning sabablari va ularni aniqlash usullari;
- 7.Stomatologik kasalliklarning oldini olishni asosiy yo'llari va vositalari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Og'iz bo'shlig'i organlari anatomiyasi, gistologiyasi va fiziologiyasi	Og'iz bo'shligi organlari anatomiyasi, gistologiyasi va fiziologiyasining tuzilishini, tish qanday anatomik tuzilishga ega ekanligini, tish qanday to'qimalardan tashkil topishini bilish. Tishning asosiy xossasini nima tashkil etishini va tishlar qanday guruhlarga bo'linishini, sut va doimiy tishlarni bir biridan farqlay olish haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	12,5 %	5 ta
2	Aholiga stomatologik yordam ko'rsatish	Stomatologik poliklinika qanday tuzilishi, stomatologik poliklinikalarda qanday yordam turlari amalga oshirilishini bilish. Stomatologik xona qanday sanitar me'yoriy talablariga javob berishi, stomatologiya bo'limlarida qanday davo muolajalari o'tkazilishi haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	12,5 %	5 ta
3	Aseptika va Antiseptika	Aseptika qoidalariga rioya qilishni, antiseptikaning qanday turlari, sterillashning avtoklavlash usuli qanday amalga oshirilishi, quruq issiqlik bilan sterillash jarayonini, sovuq usulda sterillash uchun qanday kimyoviy elementlardan foydalanish haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	12,5%	5 ta
4	Stomatologik bemorni tekshirish usullari	Stomatologik bemorlarni tekshirishning qanday usullari borligi, so'rov qanday olib borilishi, ko'rikning qanday turlari. Yordamchi tekshirish usullaridan qanday foydalanish, kasallik varaqasida nimani aniqlashni bilish.	25 %	10 ta
5	Tish qattiq to'qimalarining nuqsonlari	Tish qattiq to'qimasi nuqsonlari kasalliklari qanday nuqsonlarga bo'linishini, tish qattiq to'qimalarining nokariyesli nuqsonlari va kariyesning kelib chiqish sabablari, klinik ko'rinishi, davolash,, kariyesni davolashda vujudga kelishi bo'lgan xato va asoratlar, ularni bartaraf etish va profilaktikasi haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	7,5 %	10 ta
6	Stomatologik kasalliklarning sabablari va ularni aniqlash usullari.	Stomatologik kasalliklar sabablari, ularni aniqlash,,tish karashlari, va toshlari minerallasgan tish toshlari, stomatologik tekshirish ko'rsatkichlari: kariyesning tarqalish ko'rsatkichlarini,kariyesning jadallik ko'rsatkichlarini, gingivit ko'rsatkichlarini	2,5 %	1 ta

		aniqlash haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.		
7	Stomatologik kasalliklarning oldini olishni asosiy yo'llari va vositalari	Kariyes va parodont kasalliklari birlamchi profilaktikasi usullari, stomatologik sanitariya maorifi, og'iz bo'shlig'i shaxsiy gigiyenasi qoidalari va usullarini, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi vositalari, tish cho'tkalari va ularning turlari, tish pastalari ularning tarkibiy va xususiyatlari, tish tozalashning yordamchi vositalari, tarkibida ftor saqlovchi birikmalarning kariyes va parodont kasalliklari profilaktikasidagi ahamiyati va qo'llash, ftoridlar saqlovchi tabletkalar va ulardan foydalanish haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	10 %	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	85 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	10 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyman etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. N.A.Tashpulatova, "Stomatologik kasalliklar", Toshkent "VORIS-NASHRIYOT", 2017.

2. H.SH.Rahmonov, "Stomatologik kasalliklarning birlamchi profilaktikasi", Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, Toshkent-2003.

3. M.F.Ziyayeva, R.N.Bahodirova Terapiyaviy stomatologiya, Toshkent -2004